



XORIJY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA ER-XOTINNING SHAXSIY HUQUQLARI

Karimova Zebo Kamol qizi

TDYU Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

Zebokarimovaa05@gmail.com

+998947074754

Annontatsiya. *Ushbu maqolada xorijiy davlatlar misolida er va xotinning shaxsiy huquqlari masalasi tahlil qilinadi, xususan Yevropa mintaqasidagi davlatlar va O'zbekiston qonunchiliklaridagi o'ziga xoz jihatlarni aniqlashdan iboratdir. Mazkur maqolada er va xotinning oilada shaxsiy huquqlari, o'zaro majburiyatlari shuningdek bir-birlariga hurmat va ko'maklashish tamoyillari va nizo kelib chiqqan taqdirda shaxsiy huquqlar qanday himoya qilinishi ko'rsatib o'tiladi. Ilmiy izlanishda, Yevropa davlatlari va O'zbekiston qonunchiligi o'rganiladi, ular O'zbekiston Oila kodeksi bilan qiyoslanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tegishli taklif va xulosalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *Oila, shaxsiy huquqlar, xalqaro tajriba, Fransiya oila huquqi, Shvetsariy oila huquqi, O'zbekiston oila huquqi, huquqiy taqqoslash.*


Karimova Zebo Kamol qizi

Student, Faculty of Criminal Justice,

Tashkent State University of Law

zebokarimovaa05@gmail.com

+998947074754



Abstract. *This article examines the issue of spouses' personal rights at the international level. The purpose of the study is to analyze family law legislation in international practice, particularly in European countries, and to identify the distinctive features of Uzbek legislation. The article highlights the personal rights of spouses within the family, their mutual obligations, principles of respect and assistance, as well as the protection of personal rights in the event of disputes. The research focuses on the legislation of European countries and Uzbekistan, comparing it with the Family Code of Uzbekistan. Based on the results, relevant conclusions and recommendations are presented*

Keywords: *personal rights of spouses in the family, international experience, French family law, Swiss law, Uzbek family law, legal comparison..*

Каримова Зебо Камол кизи

студентка факультета уголовного правосудия

Ташкентского государственного

юридического университета

zebokarimovaa05@gmail.com

+998947074754

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос личных прав супругов в международном контексте. Цель исследования – проанализировать законодательство о семье в международной практике, в частности в европейских странах, и выявить особенности законодательства Узбекистана. В статье рассматриваются личные права супругов в семье, их взаимные обязанности, принципы уважения и взаимопомощи, а также защита личных прав в случае споров. Исследование сосредоточено на законодательстве европейских стран и Узбекистана с сопоставлением с Семейным кодексом Узбекистана. По результатам исследования представлены соответствующие выводы и рекомендации*

Ключевые слова: *личные права супругов в семье, международный опыт, семейное право Франции, право Швейцарии, семейное право Узбекистана, правовое сопоставление.*

Oila huquqi nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haiqiqiy emasligi, oilada er va xotinning o'rtasida, ota-ona bilan bolalar o'rtasida, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlarni, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayt etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalari yig'indisidan iboratdir⁴¹. Demak, oddiy qilib aytganda oila huquqi bu – er xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni o'rganadigan qoidalar hisoblanadi. Oila huquqining asosiy sakkizta tamoyillari mavjud bo'lib, bular: oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkakning teng huquqga egaligi, oilaviy munosabatlarda o'zro bir-biriga g'amxo'rlik qilish (ya'ni er va xotin, ota-ona va bolalar, bobo-buvi va nabiralar, aka-ukalar va opa-singillar, farzandlik olganlar va boshqalar o'rtasidagi munosabatlar, avvalo nikoh, qon-qarindoshlik yoki oilaviy rishtalar bilan bog'liq bo'lgan shaxslar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlardir⁴².), nikohdan erkin ajralish, faqat yakka nikohlarni tan olish, ixtiyoriy nikoh tuzish hamda oilaviy huquq munosab subyektlarini har taraflama himoya etish tamoyillaridir. Ushbu tamoyillar birdaniga vujudga kelmagan, ular bevosita jamiyatning uzoq yillik tarixiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq. Er

⁴¹ Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.I.Oyqulovning umumiy tahriri ostida. – T.:TDYU nashriyoti,2017. -B. 11.

⁴² Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.I.Oyqulovning umumiy tahriri ostida. – T.:TDYU nashriyoti,2017. -B. 12.

va xotinning munosabatlari, huquqlari va majburiyatlari bo'yicha tarixga qaytadigan bo'lsak AVESTO manbasiga tayanamiz. Avesto bo'yicha nikoh yoshi 16 yosh qilib belgilangan. Biroq, oila qirsh va nikoh tuzish bu taraflarning xohish-irodalari asosida emas, bilakis ota-ona va jamoaning roziligi bilan amalga oshirilgan. Qizlar 15 yosh, o'g'il bolalar esa 16 yoshida oqsoqol boshchiligida jamoa oldida maxsus imtihondan o'tkazilgan. Balog'at yoshiga yetgan qizlar ro'zg'or yuritishni o'rganib, "kadbonu", ya'ni "uy bekasi", yigitlar esa, "kak xudo", ya'ni "oila boshlig'i" bo'lish, cho'pon-cho'lig'ini olib, ot surish, tuya minib yurish huquqlarini qo'lga kirtganlar⁴³. Bundan tashqari zardushtiylik aqidasi "Teng-tengi bilan" hikmati mavjud bo'lgan, ya'ni nikohdan oldin yigitning chiroyi, baquvvatligi, qizning husni inobatga olingan. Nuqsoni bor qiz yoki bola nikoh qura olishmagan. Yillar o'tgan sari bunday diskriminatsiyalar bartaraf etilgan va nikohda ham yigit va qizning xohish irodalari inobatga olinib boshlagan. Bugungi kunga kelib, oila huquqi jamiyatimizning eng dolzarb masalasiga aylangan. Oila huquqiga birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov alohida e'tibor qaratgan bo'lsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu boradagi islohotlarni izchil davom ettirib kelmoqda. Shu o'rinda muhtarram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev M.ning oila haqidagi gaplarini yodga olsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. "Oila – mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir. Mashhur qo'shiqlardan birida aytilganidek, Uyida baxti borlar har yerda baxtiyordir. Men aziz yigit-qizlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: turmush qurishga, oilaga, farzand taqdiriga nihoyatda chuqur mas'uliyat bilan qarang. Bu masalaga yuzaki yondashib, ham o'zingiz, ham o'zga bir inson hayotini xavf ostiga qo'ymang⁴⁴." Mamlakatimizda oila va uni mustahkamlash Birlashgan Millatlar tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Respublikamizda oila munosabatlari milliy qadriyatlarimizga mos shakllangan va zamonaviy ko'rinishda takomillashib borayotgan xalqaro huquq normalari talablariga to'liq javob beradigan qonun hujjatlari bilan huquqiy tartibga solinadi. Oxirigi yillarda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan bir qator davlat dasturlari, qabul qilingan normati-huquqiy hujjatlar oilani mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Xotin -qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir

⁴³ Oila huquqi: darslik/F.M. Otaxo'jayev, Sh.R. Yuldasheva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: ChoMpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 10.

⁴⁴ (<https://qalampir.uz/uz/news/prezident-yeshlarga-turmush-k-urishga-oilaga-farzand-tak-diriga-ni%D2%B3oyatda-chuk-ur-mas-uliyat-bilan-k-arang-34498#:~:text=%22Oila%20%E2%80%93%20mehr%20va,ta%E2%80%99kidladi%20Shavkat%20Mirziyoyev.>)

ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni shular jumlasidandir.⁴⁵

Bilamizki, oila huquqining asosiy inisutlaridan biri bu er va xotinning shaxsiy huquqlari hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlar oila huquqining tushunchasi, tarixi va ahmayatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, er va xotinning shaxsiy huquqlari xorijiy davlatlar qonunchiligida qay yo'sinda tartibga solinishi alohida tahlilni talab etadi. Er va xotinning shaxsiy huquqlari xalqaro hujjatlarda ham tilga olingan, masalan 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambelyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida shunday deyilgan: Voyaga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab hech qanday cheklovlarsiz nikoh qurish va oila qurish huquqiga ega. Ular nikohda, nikoh paytida va uni bekor qilishda teng huquqlarga ega. Nikoh faqat er-xotinning erkin va to'liq roziligi bilan tuzilishi mumkin. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini bo'lib, jamiyat va davlat himoyasida bo'lish huquqiga ega⁴⁶. Shuningdek, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning 16-moddasida ham er va xotinning huquqlari bayon qilingan, jumladan nikohdan o'tishda bir xil huquqlar, turmush o'rtog'ini erkin tanlash va nikohdan faqat o'zining erkin va to'liq roziligi bilan o'tishda teng huquqlar, nikohdan o'tish hamda uni bekor qilish paytida bir xildagi huquq va burchlar, bolalarga taalluqli bo'lgan masalalarda oilaviy sharoitidan qat'iy nazar barcha vaziyatda bolalarning manfaati ustun turgan holda erkak va ayollar ota-ona sifatida bir xildagi burch va huquqlarga ega bo'lishi, er va xotinning teng shaxsiy huquqlari (ismi-sharifini, kasb va mashg'ulotini tanlash huquqi⁴⁷). Americam Bar Association Family Legal Guide kitobiga ko'ra *nikoh – bu erkak va ayol o'rtasida er va xotin maqomini belgilash uchun tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Nikoh tuzilgandan so'ng, ularning munosabatlari huquqiy statusga ega bo'ladi. Er va xotinning moliyaviy va shaxsiy huquq va majburiyatlari mavjud bo'lib, ular nikoh davomida ham, ajralish holatlarida ham amal qiladi. AQSH Oliy Sudi 1888-yilda nikoh haqida shunday degan: “ bir maritta nikoh tuzilgandan so'ng, qonun aralashib, tomonlarni turli majburiyat va javobgarliklarga tortadi⁴⁸.”* Xorijiy tajriba misolida, Fransiya - oilaviy huquq va er xotinning shaxsiy huquqlarini yoritib bergan. Xususan, Fransiyaning Fuqarolik kodeksi (*Civil Code*) VI-bobida er va xotinning huquqlari hamda majburiyatlari keltirilgan bo'lib unga ko'ra: modda 212 (Art 212) *turmush o'rtog'lar bir-biriga hurmat, sadoqat, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishga majburdirlar*, modda 223 (Art 223) *har bir tumush o'rtog'i erkin ravishda savdo-sotiq faoliyatini yuritishi, o'z daromadlari va ish haqini olishi va nikoh xarajatlarini qoplagandan so'ng ular ustida tasarruf etish huquqi*, modda 225 (Art 225) *har bir turmush o'rtog'i o'zining shaxsiy mulkini mustaqil ravishda boshqarishi, unga oid majburiyatlarni*

⁴⁵ Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Rustamova Nilufar Rusramovna Oila huquqida oilaviy huquqiy javobgarlik Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan DISSERTATSIYA 4-bet

⁴⁶ Universal Declaration of Human Rights (<https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>)

⁴⁷ Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham beirsh to'g'risida konvensiya (<https://lex.uz/docs/-2685518>)

⁴⁸ The American Bar Association family legal guide / American Bar Assicuation 2nd ed. Page 52

*olishi va undan tasarruf etish huquqi, modda 225-1 (Art 225-1) har bir turmush o'rtog'i odatga ko'ra boshqa turmush o'rtog'ining familiyasini, o'zining familiyasini almashtirish yoki qo'shimcha qilish orqali, o'zi tanlagan tartibda olib yurishi huquqi*⁴⁹. Demak, Fransiya qonunchiligiga ko'ra, er va xotinlarning shaxsiy huquqlari sifatida er va xotinlardan biri erkin ravishda savdo-stiq faoliyatini yurita olishi, o'zining shaxsiy mulkini mustaqil ravishda boshqarishi, hamda familyaga o'tish o'tmaslik kabilar e'tirof etilgan ekan. Turmush o'rtoqlar bir-biriga hurmat, sadoqat, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishi qisman shaxsiy huquq doirasiga kiradi. Biroq bu asosan majburiyat hisoblanadi. 212-modda texnik jihatdan majburiyatni belgilaydi, bu majburiyat shaxsiy munosabatlarga (hurmat, sadoqat) taalluqli bo'lib, er-xotinning shaxsiy huquqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Yevropa davlatlari, bir minataqada joylashgan bo'lishiga qaramay, er va xotinning shaxsiy huquqlari turli usullar bilan tartibga solinadi. Fransiyada Fuqarolik kodeksi nikoh doirasida o'zaro rozilik, umumiy turmush davomidagi tabiiy huquqlar va shaxsiy huquqlarni boshqarishga oid aniq qoidalarni ta'kidlasa, Shvetsariya o'zining Fuqarolik Kodeksi bilan er va xotinning shaxsiy huquqlarini aniq belgilagan shuningdek himoya qiladigan tizimli huquqiy mexanizimni taqdim qilgan. Misoli uchun Shvetsaiyaning Fuqarolik kodeksi modda-159 (Art 159) nikohga bag'ishlangan, unga ko'ra: *nikoh marosimi er va xotinning nikoh birlashuvga bog'laydi. Ular nikoh birlashuvining manfaatlarini himoya qilishga intilish va farzandlar parvarishida birgalikda ma'suliyatni bajarishga shuningdek bir-birga sadoqat va yordam ko'rsatish huquq va majburiyatini oladi.* Modda 160 (Art 160) *familya tanlash huquqiga oid bo'lib, unda aytilishicha: har bir turmush o'rtoq o'z familiyasini saqlash, turmushga chiqayotgan shaxslar fuqarolik registratoriga xabar berib o'zlaridan birining familiyasini oila familya sifatida ishlatishni xohlashlarini bildirish huquqiga ega hisoblanadilar. Ushbu moddaning ikkinchi qismida, agar turmushga chiqayotgan shaxslar o'z familiyalarini saqlashni tanlasalar, ular farzandlari qaysi familiyani olishini belgilaydilar. Asosli holatlarda, fuqarolik registratori ushbu majburiyatdan ularni ozod qilishi mumkin ekanligi ham ta'kidlangan.* Modda 161 (Art 161) *da ham er va xotinning shaxsiy huquqlari haqida bo'lib, unga ko'ra: har bir turmush o'rtog'i o'z kanton va mahalliy fuqaroligini saqlaydi.* Modda 162 (Art 162): *Turmush o'rtog'lari birgalikda nikoh uyi (oilaviy yashash joyi) qayerda bo'lishini belgilaydilar.* Modda 168 (rt 168): *Har bir turmush o'rtog'i boshqa turmush o'rtog'i yoki uchinchi shaxslar bilan bitimlar tuzishi mumkin, agar qonunda boshqa tartib belgilangan bo'lmasa.* Modda 169 (Art 169): *Turmush o'rtog'i ijara shartnomasini bekor qilish, oilaviy uyini sotish yoki oilaviy uy bilan bog'liq huquqlarni boshqa bitimlar orqali cheklash faqat boshqa turmush o'rtog'ining yaqin roziligi bilan mumkin. Agar turmush o'rtog'i bunday rozilikni ololmasa yoki u asossiz ravishda berilmasa, u sudga murojaat qilishi mumkin.* Modda 170 1-qism (Art 170-1): *Har bir turmush o'rtog'i boshqa turmush o'rtog'idan uning daromadi, mol-mulki va qarzlari haqida ma'lumot so'rash huquqiga ega*⁵⁰. Shvetsariyda turmush o'rtoqlar nikohda

⁴⁹ France FR512 CIVIL CODE, AS OF 1ST JULY 2013 (<https://www.wipo.int/wipolex/en/text/450530>)


⁵⁰ Swiss Civil Code (https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/24/233_245_233/en)

muammolarni boshdan kechirayotgan bo'lsa, shaxsiy yoki birgalikdagi nikoh bo'yicha maslahat va oilaviy maslahatchilik xizmatidan yordam so'rash huquqiga ega. Kantonlar esa o'z majburiyatlarini bajarishi kk. Yuqorida sanab o'tilgan moddalarni birma-bir tahlil qilib chiqish joizdir. 159-moddada asosiy tushuncha ya'ni nikohga qisqacha ta'rif berilgan. 160-moddada esa er va xotinning o'zaro shaxsiy huquqi bayon qilingan ya'ni oila familiasini tanlash huquqi. 161-moddada esa er va xotinning shaxsiy daxlsizlik huquqi qisqacha qilib e'trof etilgan shuningdek er va xotinning oilaviy yashash joyini belgilash ham bevosita shaxsiy huquqlar doirasiga kiradi. Shvetsariyaning Fuqarolik kodeksiga ko'ra er va xotin bitimlar tuzish kabi shaxsiy huquqga ham ega shuningdek, ijara shartnomalarini bekor qilish kabi shaxsiy daxlsizlik va rozilik huquqlari ham mavjud. Shvetsariyadagi er va xotinlar bir-birlarining daromadi, mulki va qarzlari haqidagi ma'lumotlarni so'rab olish va bilish huquqiga ham egadirlar.

Er va xotinning shaxsiy huquqlari O'zbekistonning ham tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinagan jumldan eng asosiy hujjat Konstitutsiya, Oila kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasining bosh qomusida XIV bob aynan oilaga bag'ishlangan. 76-modda: *Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi*⁵¹. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi mavjud bo'lib, ushbu kodeksning 4-bobida Er-xotinning shaxsiy huquqlari va majburiyatlariga oid bir qancha moddalar keltirilgan. Xususan, 18-modda *Er-xotin huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.* 19-modda *Oilada er va xotinning teng huquqliligi. Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar.* 20-modda *Er va xotinning familiya tanlash huquqi. Nikoh tuzish vaqtida er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotining familiasini umumiy familiya qilib tanlaydi yoki ularning har biri nikohgacha bo'lgan o'z familiasini saqlab qoladi. Er va xotindan birining o'z familiasini o'zgartirishi boshqasining ham familiasini o'zgarishiga olib kelmaydi.* 21-modda *Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal qiladilar.* 22-modda. *Er va xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari*⁵². Yuqorida keltirganlarimdan familiya tanlash, kasb hamda yashash joyini tanlash er va xotinning asosiy shaxsiy huquqlari siaftida e'tirof etiladi. Xorijiy davlatlar qonunchilini o'rganish natijasida ko'rib turibmizki, er va xotinning asosiy shaxsiy huquqlari deyarli bir xil O'zbekistonda ham Yevropa davlatlarida ham. Italiya, Ispaniya hamda Germaniya qonunchiligida ham er va xotinning shaxsiy huquqlari sifatida oilaviy turar joyini (ya'ni yashash joyi) ni tanlash,

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/6445145>)


⁵² O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA KODEKSI (<https://lex.uz/uz/docs/-104720>)



familyani o'zgartirish yoki o'zgartirmaslik, kasbiy faoliyatda erkinlik kabi huquqlar bor. Demak, bularga umume'tirof etilgan shaxsiy huquqlar sifatida qarasaq xato bo'lmaydi. Fransiya va Shvetsariya qonunchiligida ham er va xotinning shaxsiy huquqlari sifatida shular ham e'tirof etilgan edi. Endi Fransiya, Shvetsariya hamda O'zbekistonning qonunchiligidagi er xotinning shaxsiy huquqlarining farqi nimada ekanligini birma-bir ko'rib chiqamiz. Fransiyaning Fuqarolik kodeksiga binoan familia tanlash erkinligi mavjud, lekin amalda ko'proq turmush o'tog'ining familiasiga o'tishi odatiy. O'zbekistonda ham bu shaxsiy huquq, biroq amalda ko'p hollarda xotin erning familiasiga o'tadi. Shvetsariyada ham bu shaxsiy huquq, lekin u yerdagi er xotinlar kamdan kam hollarda bu huquqlaridan foydalanishadi ya'ni aholining ko'p qismi o'zining familaysida qoladi, agarda familia tanlashsa bu alohida protsedurani talab qilishini yuqoridagi Swiss Civil Code da ko'rdik. Mol-mulk va daromadni tassarruf etish huquqi ham Fransiya bilan O'zbekistonda o'xshashroq ya'ni nikohdan keyin kiritilgan mol-mulk umumiy, nikohgacha bo'lgan mol-mulk esa shaxsiy. Farqli jihati shundaki, O'zbekistonning Oila kodeksi 25-moddasida *er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining o'z mulki hisoblanishi*⁵³ alohida norma sifatida belgilangan., biroq bu Fransiyaning qonunchiliga e'tirof etilmagan. Shvetsariyaning Fuqarolik kodeksidagi daromadni boshqarish borasidagi shaxsiy huquqlar O'zbekistonnikiga deyarli o'xshaydi. Lekin qilingan tahlildan ko'rinib turibdiki Shvetsariyada er va xotinning shaxsiy huquqlari keng va batafil qilib yoritilgan Fransiyanikiga qaraganda. Masalan, har bir turmush o'rtog'i o'z kanton va mahalliy fuqaroligini saqlaydi. Turmush o'rtog'lari birgalikda nikoh uyi (oilaviy yashash joyi) qayerda bo'lishini belgilaydilar. Har bir turmush o'rtog'i boshqa turmush o'rtog'i yoki uchinchi shaxslar bilan bitimlar tuzishi huquqiga ham egadirlar. Har bir turmush o'rtog'i boshqa turmush o'rtog'idan uning daromadi, mol-mulki va qarzlari haqida ma'lumot so'rash huquqi, turmush o'rtog'lar nikohda muammolarni boshdan kechirayotgan bo'lsa, shaxsiy yoki birgalikdagi nikoh bo'yicha maslahat va oilaviy maslahatchilik xizmatidan yordam so'rash huquqi va boshqa huquqlar. O'zbekiston qonunchilida esa er va xotinning shaxsiy huquqlari asosan tenglik prinsipiga asoslanadi.

Keltirilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Shvetsariya Fransiya hamda O'zbekiston qonunchiligida nikoh davomida er va xotinning shaxsiy huquqlarini tartibga solishda umumiyliklardan tashqari o'zaro bir biriga xos farqli jihatlari ham bor. Xususan, familia tanlash, yashash joyini tanlash, kasb daromad faoliyati va boshqa masalalarda turli yondashuvlar mavjudligi e'tibordan chetda qolmaydi. Ushbu tahlillardan kelib chiqib O'zbekiston oilaviy huquq tizimini yanada boyitish uchun ba'zi shaxsiy tavsiyalarim ilgari suriladi. Mening fikrimcha Shvetsariya qonunchiligidagidek oilaviy uyga oid shaxsiy huquq O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyaviy miqyosida joriy etilsa**, butun oila va uning a'zolarini ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga samarali hissa qo'shgan bo'lar edi. Chunki bilamizki, er va xotinlardan biri boshqa tarafning qarshiligiga qaramasdan, oilaviy uyga oid

⁵³ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA KODEKSI (<https://lex.uz/uz/docs/-104720>)



turli xil bitimlar tuzishi ya'ni sotishi, ijaraga berishi kabi holatlar uchrab turadi. Agar er xotinda bitimlarni bekor qilish kabi shaxsiy huquqlar bo'lsa, shu kabi muammolar kamaygan bo'lar edi. Shvetsariyada sud jarayonida ajrashishga qadar oilaviy maslahatchilik kengashi mavjud ekanligi aytilgan edi. Ya'ni er va xotin o'rtasida nizo kelib chiqqan taqdirda ular o'zlarining shaxsiy huquqlaridan foydalangan holda shu kabi yarashtiruv markazlariga boradilar. O'zbekistonda ham mediatorlar bor biroq mening fikrimcha mediatsiya majburiy tartib sifatida qonunchilikka qo'shilsa ajrimlar kamaygan bo'lar edi. Shuningdek, shaxsiy huquqlarni buzganlik uchun maxsus kompensatsiya tizimi joriy etilsa, er va xotinlar orasida shaxsiy huquqlarini hurmat qilish yanada oshar edi shuningdek ajrimlar soni kamaygan bo'lar edi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, er va xotinning shaxsiy huquqlar milliy qonunchiligimizda ham shu jumladan chet el qonunchiligida ham birdek ahamiyatli. O'zbekiston, Fransiya va Shvetsariya qonunchiligining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir davlatning tarixi va an'analridan kelib chiqib, shaxsiy huquqlar yaratila boshlangan va hozirgi kunda tartibga solingan. Ushbu qiyosiy tahlil Yevropa davlatlaridagi er va xotinning shaxsiy huquqlarini o'rgandi hamda uni O'zbekiston qonunchiligidagi normalar bilan solishtirdi. Tahlildan kelib chiqqan natijalar asosida esa subyektiv takliflar ilgari surildi.

REFERENCES:

- 1) Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, prof. O.I.Oyqulovning umumiy tahriri ostida. – T.:TDYU nashriyoti,2017.
- 2) Oila huquqi: darslik/F.M. Otaxo'jayev, Sh.R. Yuldasheva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: ChoMpon nomidagi NMIU, 2013
- 3) Prezident yoshlarga: “Turmush qurishga, oilaga, farzand taqdiriga nihoyatda chuqur mas'uliyat bilan qarang” Qalampir.uz Jamiyat. 06 mart 2021-yil.(<https://qalampir.uz/uz/news/prezident-yeshlarga-turmush-k-urishga-oilaga-farzand-tak-diriga-ni%D2%B3oyatda-chuk-ur-mas-uliyat-bilan-k-arang-34498#:~:text=%22Oila%20%E2%80%93%20meh%20va,ta%E2%80%99kidladi%20S%20h%20havkat%20Mirziyoyev%20>)
- 4) Universal Declaration of Human Rights (<https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>)
- 5) Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham beirsh to'g'risida konvensiya (<https://lex.uz/docs/-2685528>)
- 6) The American Bar Association family legal guide / American Bar Association 2nd ed. Page 52

7) France FR512 CIVIL CODE, AS OF 1ST JULY 2013 (<https://www.wipo.int/wipolex/en/text/450530>)

8) Swiss Civil Code (https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/24/233_245_233/en)

9) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/docs/6445145>)

10) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA KODEKSI (<https://lex.uz/uz/docs/-104720>)

11) Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Rustamova Nilufar Rusramovna Oila huquqida oilaviy huquqiy javobgarlik Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan DISSERTATSIYA 4-bet.